

SODDA HAYVONLAR - PROTAZALARNING BIOLOGIK ASOSLARI

*To‘xtanazarova Dilxumor To‘ychiboyevna**Namangan shaxar 2-son politexnikumi Biologiya fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Parazit hayot kechiruvchi sarkodalilar, xivchinlilarning hayot sikli, yuqish yo‘llari, patogen ta’siri, ularning laboratoriya tashhisi va profilaktikasi choralarini o‘rganish.

Kalit so‘zlar: pinotsitoz, sodda hayvonlar, patogen ta’sir, kommensalizm, avitaminoz, invaziya, amboya, sista, sarkorida, xivchinlilar.

KIRISH.

Sodda hayvonlar — bir hujayrali organizmlar, ularning turlarning soni 25000 ga yaqin. Odamlarda 25 turi parazitlik qiladi. Sodda hayvonlarning tuzilishi ko‘p hujayralilar hujayrasiga o‘xshaydi, lekin mustaqil organizmlar bo‘lgani uchun o‘ziga xos belgilari mavjud. Ularning maxsus organoidlari harakat organoidlari, hazm va qisqaruvchi vakuolalari mavjud. Sodda hayvonlarning harakat organoidlariga psevdopodiyalar (soxta oyoqlar), kiprikchalar, xivchinlar kiradi. Ovqatlanish pinotsitoz yoki fagotsitoz orqali amalga oshiriladi. Ovqat maxsus hazm vakuolalariga tushadi, ba’zi turlarda sitostom mavjud. Qisqaruvchi vakuolalar osmotik bosimni boshqaradi va kislorod bilan ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maqolada analiz, sintez, eksprement hamda laborator tekshiruv metodlaridan va manbalaridan foydalanildi. Sodda hayvonlar- protaza tipiga oid manbalardan ma'lumotlar olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sarkodalilar (Sarcodina) sinfining harakterli belgilari quyidagilardan iborat: . Eng oddiy tuzilgan sodda hayvonlar. Ularning o'ziga xos belgisi psevdopodiyalar (soxta oyoqlar) mavjudligidir. Soxta oyoqlar harakat organoidi bo‘lib, ovqatni qamrab olishga ham xizmat qiladi. Ular nafis membrana bilan o‘ralgan, ko‘pchiligi bir yadrolidir. Golozoy usulda ovqatlanadi, yutilgan ovqat zarrachalari vakuolalarda hazm bo‘ladi, qisqaruvchi vakuolalari mavjud. Sarkodalilar orasida Amyobalar (Amoebina) turkumi tibbiyot ahamiyatiga ega.

Dizenteriya amyobasi (Entamoeba hystolitica) Dizenteriya amyobasi (Entamoeba hystolitica) — amyobiaz yoki amyoba dizenteriyasining qo‘zg‘atuvchisi. Xo‘jayin organizmida joylashishi. Yo‘g‘on ichakda parazitlik qiladi.

G

e

o

g

r

a

f

gacha), ichakning devoriga kiradi va to'qima shakliga aylanadi. Natijada, qon tomirlari jarohatlanadi, qon oqishi kuzatiladi, yaralar paydo bo'ladi (yarali kolit). Ichak bo'shlig'ida qolgan kichik vegetativ shakllar esa eritrotsitlar bilan ovqatlanuvchi (eritrofaglar) — yirik vegetativ chiqishi mumkin, lekin ular eritrotsitlar bilan ovqatlanmaydilar. Davolash natijasida (kasallik tuzalayotganda) katta vegetativ shakllar ichak bo'shlig'ida kichik vegetativ shakllarga aylanadi, ulardan esa sistalar hosil bo'ladi. Bunday shaxslar sista tashuvchilar deyiladi. Ular sog'lom bo'ladilar, lekin tashqi muhitga sistalar ajratib turgani uchun o'ta xavfli hisoblanadi.

Invaziya manbai faqat kasal odamlar hisoblanadi (bunday kasalliklar antroponozlar deyiladi). Sistalar tashqi muhit omillari ta'siriga o'ta chidamlidir. Sistalar tarqalishida mexanik tashuvchilar (ularda parazit ko'paymaydi, faqat mexanik ravishda ko'chiriladi) — suvaraklar, pashshalar katta rol o'ynaydi. Odamga yuvilmagan mevalar, sabzavotlar, qaynatilmagan suv, iflos qo'llar orqali yuqadi.

Patogen ta'siri. Kasallarda qon va shilliq aralash tez-tez ich ketish kuzatiladi. Amyobalar qon tomirlari orqali jigar, miya, o'pka va boshqa a'zolariga borib, o'sha a'zolar yiringlashiga (abscess) sabab bo'lishi mumkin. Laboratoriya tashhisi. Kasalning axlatidan eritrotsitlarni yutgan katta vegetativ shakllar (kasallik zo'raygan davrda) yoki to'rt yadroli sistalar (surunkali shaklida) topilishi asosida tashhis qo'yiladi.

XULOSA

Xulosa sifatida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sodda hayvonlar tipidagi parazitlar xavfli hisoblanib, bu omil jamoat joylarida sanitariya qoidalariga rioya qilishni talab qilaomil. Negaki, ushbu parazitlardan ba'zilarining yuqishi organizm zaiflashtiribgina qolmasdan o'zining jiddiy asoratlarini ko'rsatadi. Sodda hayvonlar ko'payishi jinssiz va jinsiy yo'llar bilan amalga oshiriladi. Ba'zi turlarida esa murakkab rivojlanish sikli kuzatiladi. Noqulay sharoitlarda sistaga o'raladi. Ko'pchilik sodda hayvonlar erkin hayot kechiradi, ancha qismi parazit hayot kechirishga moslashgan. Harakatlanishi usullari va ko'payishining o'ziga xosligiga qarab sodda hayvonlar tipi 4 sinfga ajratiladi: Sarkodalilar (Sarcodina), Xivchinlilar (Flagellata), Sporalilar (Sporozoa), Kipriklilar (Ciliata). Aynan mana shu tipdagi parazitlar inson va hayvon terisidagi fagotsitar hujayralar sitoplazmasida yashaydi. Bu bakteriyalar nafaqat yaralar hosil qiladi balki, oxiri o'lim bilan tugovchi asoratlarga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo.X. To'raqulov "Молекуляр биология" Toshkent, "O'qituvchi" 1993-yil;
2. K.G. Gazoryan, V.Z. Tarontul, "Биотехнология зарубежом", Moskva, "Знание" 1990-yil;
3. "Umumiy biologiya" darsligi "Sharq" NMK. 1995-yil;
4. X.Xoliqov va boshqalar "Биотехнология", "Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti", Toshkent, 1996-yil;
5. Yu. P. Laptev, "Биологик инженерия", Toshkent, "Mehnat", 1990-yil;

6. Rahimov M.M. biotexnologiya asoslari (qo'lyozma). Toshkent 2008
7. Aberqulov M. Genetika va biotexnologiya (ma'ruza matnlari) T. 2000
8. Nishonboyev K.N, Hamrayeva F.A, Eshonqulova O.E. Tibbiyot genetikasi. Toshkent. "Abu Ali ibn Sino " 2000-yil;